
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Homilador va 3 yoshgacha bolasi bor ayollarni shtat qisqarishi asosi bilan ishdan bo'shatish mumkin emas

Ish beruvchi xodimni quyidagi holatlarda ishdan bo'shatishi mumkin emas (Mehnat kodeksi 163-modda)

1. Mehnat kodeksida yoki boshqa qonunlarda belgilanmagan asoslar bilan;
2. kamsitishni taqiqlash talabini buzadigan holatlarda (talablar bu yerda);
3. xodim "bolnichniy" da bo'lganda (ya'ni, kasal bo'lganda), har qanday "otpusk" (ta'til)ga chiqqanida
4. xodim davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarganligi uchun ishdan ozod etilganda;
5. xodim xizmat safarida bo'lganda;
6. homilador ayollar homiladorlik davrida

Shuningdek, 3 yoshgacha bolasi bor ayollar yoki 3 yoshgacha bo'lgan bolani yolg'iz tarbiyalayotgan ota (vasiy)ni faqat korxonaga tugatilganda, ular mehnat intizomini doimiy yoki bir marta qo'pol ravishda buzganda ish beruvchi tomonidan bo'shatish mumkin. Shtat qisqarishi yoki malakasi yetarli emasligi asosi bilan ularni ishdan bo'shatish mumkin emas.

Korxonaga tugatilganda esa yuqoridagi holatlardagi cheklovlar qo'llanilmaydi, ya'ni xodim "bolnichniyda", ta'tilda, xizmat safarida bo'lganda yoki homilador bo'lganda ham ishdan bo'shatilaveradi.

Qodiraliyev Murodjon Yusubjonovich - Farg'ona shahar adliya bo'limi

bo'lim boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-22 17:37:33